

EKOLOGIYA

Olimjonova Zarnigor Shokirjon qizi, Najmiddinova Sarvara Samariddinovna

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat Institutining Farg'ona mintaqaviy filiali talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kundagi ekologik muammolar va ularni hal etish uchun keng ko'lamda olib borilayotgan chora tadbirlar, Respublikamiz hududlarida, xususan Toshkent shahridagi havoning ifloslanishini keltirib chiqarayotgan sabablarni bartaraf etish muammolari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: ekologiya, yer, tabiat, atmosfera, muammo, ozon, ozon qatlami, mahsulot, Toshkent, inson.

Abstract: This article highlights the current environmental problems and measures taken to solve them on a large scale, in particular, the problems of eliminating the causes of air pollution in Tashkent.

Key words: ecology, earth, nature, atmosphere, problem, ozone, ozone layer, product, Tashkent, man

Аннотация: В данной статье освещены современные экологические

проблемы и меры, принимаемые для их масштабного решения, в частности, проблемы устранения причин загрязнения атмосферного воздуха в Ташкенте.

Ключевые слова: экология, земля, природа, атмосфера, проблема, озон, озоновый слой, продукт, Ташкент, человек.

Yer kurrasi qiyofasini o'zgartirishda inson omili kattageologik kuch sifatida vujudga kelgani V. I. Vernadskiy tomonidan ta'kidlab o'tilgan edi. Ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish XXI asrning eng katta muammolaridan biri bo'lib qoldi. Hozirgi vaqtga kelib tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar muvozanatining yomonlashuvi natijasida ekologik vaziyat keskin o'zgarishlarga duchor bo'lmoqda. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni iqtisodiyotda, hayotda xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq (talofatlar, iqlimning o'zgarishi va b) har qanday hodisa tushuniladi.

Hozirgi kunda yer yuzida o'rmonlar-u o'simliklar kamayib, yerlar dehqonchilik qilish uchun o'zlashtirildi, kimyoviy dorilar, plastik va polietilen mahsulotlari, korxonalaridan chiqayotgan zararli gaz, chiqindilar orqali toza havo, tabiatga jiddiy zarar yetkazildi. Ma'lumot uchun: Kelgusi 30 yilda iqlim o'zgarishi va uning oqibatlarini yaxshilash uchun jahonda 8 trln dollar sarflanishi va 2050 yilgacha dunyo yalpi ichki mahsuloti 3% kamayishi taxmin qilinmoqda.

Dunyo bo'yicha kuzatilayotgan tabiiy, tabiiy antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Bularga ba'zi misollar keltirishimiz mumkin. "Atmosferaning dimiqish" hodisasi. Keyingi yillarda atmosfera tarkibidagi SO₂ miqdori ortib borayotganligi ma'lum bo'ldi. Natijada harorat 100 yil ichida 0,5-1,0°S ga ortdi. Iqlimning keng ko'lamda o'zgarishi atmosferaga sanoat chiqindilari va avtotransport vositalaridan chiqayotgan tutunlar bilan bog'liq. Global isish, o'rmonlarning keskin kamayishi, toshko'mir va benzin kabi yonilg'ilarning yonishidan atmosferadav to'planadigan SO₂ gazi tufaylidir. Ushbu gazning ortishi natijasida quyidagi kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin:

1. Iqlimning o'zgarishi, ayniqsa cho'llanish jarayonining kuchayishi.

2. Yog‘ingarchilik kamayishi.
3. Geografik zonalarning siljishi.
4. Dengiz va okeanlar satxining ortishi.
5. Muzliklarning erishi va kamayishi
6. Ozon qatlamining siyraklanishi.

Ozonosfera atmosferaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, iqlim va yer yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Atmosferadagi ozonning eng muhim xususiyati uning doimiy hosil bo‘lishi va parchalanib turishidadir [1]. Ozon quyosh nurlari taʼsirida kislorod, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo‘ladi. U kuchli ultrabinafsha nurlarini yutib yerdagi tirik organizmlarni himoya qiladi. Ultrabinafsha nurlari taʼsirida insonlarda terining kuyishi, teri raki bilan kasallanishlar kelib chiqayotganligi aniqlandi. Toshkentda 2024-yil 17- yanvar tongida atmosfera ifloslanish darajasi IQAir reytingida dunyo bo‘yicha 8-o‘rinni egalladi. Unga ko‘ra, soat 7:20 lar atrofida Toshkent havosida mayda PM-2,5 dispers zarralarining konsentratsiyasi 159 mkg/m³ni tashkil etgan – bu “xavfli” tasnifidagi ko‘rsatkich hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga qaraganda, ifloslanish ko‘rsatkichlari orasida salomatlik uchun eng katta xavf tug‘diradigani aynan PM-2,5 dispers zarralaridir.

Shahar havosining kuchli ifloslanishi texnogen sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan. Yonilg‘i quyish shoxobchalari yopilishi natijasida past sifatli Ai-80 benzinidan katta hajmlarda foydalanish, shuningdek, isitish tizimlarida mazut va ko‘mir yoqish kabi. Shaharning yuqori darajada ifloslanganini kuzatib: “Bu niqob emas, protivogaz bilan yuriladigan havo”, — dedi iqlimshunos, ilmiy tadqiqotchi Erkin Abdulhatov. Ta’kidlanishicha, Toshkent shahri tog‘lar bilan o‘ralgan, chuqurlikda joylashgani sababli shamol aylanmasligi hisobiga chang oqimi to‘planib, dimlanib qoladi va tabiiy yo‘l bilan chiqib ketmaydi. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar ko‘rilishi rejalashtirilmoqda. Xususan, avtotransport vositalari tirbandligini kamaytirish, barcha turdagi qurilish obektlarini tizimlashtirish, zavodlardan chiqayotgan zaharli tutunlarni filtrlash, sun‘iy suv havzalarini barpo etish, yashil hududlarni ko‘paytirish, plastik idishlarni tabiiy mahsulotlarga almashtirish hamda aholi yashash hududlarida obodonlashtirish ishlarini tashkil etish orqali ko‘zlangan natijalarga erishish mumkin. Zotan, ona tabiat istiqbolini o‘ylagan holda, kelajak avlodga uni go‘zal va tabiiyligicha qoldirish kunning asosiy majburiyati hisoblanadi.

[1]Birlashgan millatlar tashkiloti Evropa Iqtisodiy komissiyasi. Atrof-muhit holatining sharhi. O‘zbekiston. Ikkinchi sharh. New-York va Jeneva, 2010. 76 –bet

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. 2017—2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Ekologiya va atrofmuhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni. 21- aprel 2017-yil, Toshkent 3.
3. Lutfullayeva N.B. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Ekologiya va atrof muhit muhofazasi kafedrasida katta o‘qituvchisi. Toshkent, O‘zbekiston.

-
4. Alimov T L Rafikov AA Ekologik xatolik saboqlari T 1995 b 61 4.
 5. Ergashev A Ergashev T Ekologiya biosfera va tabiatni muxofaza qilish.
Toshkent “yangi asr avlodlari” 2005 yil b 58 5